

**XALQ DOSTONLARINI O'RGANISHDA YANGI
METODLARNI QO'LLASH ORQALI
O'QUVCHILARNING MA'NAViy SIFATLARINI
SHAKLLANTIRISH ("RUSTAMXON" DOSTONI
MISOLIDA)**

Sattorov Shokir Jabborovich

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ КАЧЕСТВ
СТУДЕНТОВ ПУТЕМ НОВЫХ МЕТОДОВ
ИЗУЧЕНИЯ НАРОДНОГО ЭПОСА (НА
ПРИМЕРЕ ЭПОСА «РУСТАМХАН»)**

Сатторов Шокир Жабборович

*Независимый исследователь Термезского государственного
университета*

**FORMING THE SPIRITUAL QUALITIES OF
STUDENTS THROUGH THE USE OF NEW
METHODS IN THE STUDY OF FOLK EPISTLES
(ON THE EXAMPLE OF THE EPISTLE
"RUSTAMXON")**

Sattorov Shokir Jabborovich

Independent researcher of Termez State University



E-mail:

shokir.sattorov@mail.ru

Orcid: 0009-0008-6584-
5692

Annotatsiya: Ta'limda innovatsiya izchil jarayon hisoblanib, dars davomida o'quvchi faol ishtirokchi, o'qituvchi esa boshqaruvchilik vazifasini bajaruvchiga aylanadi. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida hamkorlikni paydo qiladi va bu hamkorlik esa o'quvchi shaxsida ijodkorlik ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Adabiy ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiya, innovatsion metod ham interfaol usullarni qo'llash ommalashib bormoqda.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, zamonaviy texnologiya, innovatsion, metod, interfaol usul, hissiyotlarni sezish, idrok qilish, asar mohiyati.

Аннотация: Инновации в образовании рассматриваются как непрерывный процесс, в ходе урока ученик становится активным участником, а учитель – менеджером. Оно создает сотрудничество между учителем и учеником, а также это сотрудничество формирует творческие способности личности ученика. В процессе литературного образования становится популярным использование современных технологий, инновационных методов и интерактивных методов.

Ключевые слова: литературное образование, современные технологии, инновационный, метод, интерактивный метод, восприятие эмоций, восприятие, суть произведения.

Abstract: Innovation in education is a consistent process, during which the student becomes an active participant, and the teacher becomes a manager. It creates cooperation between the teacher and the student, and this cooperation also forms creative skills in the student. The use of modern technology, innovative methods and interactive methods in the process of literary education is becoming increasingly popular.

Key words: literary education, modern technology, innovative, method, interactive method, feeling emotions, perception, essence of the work.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

“Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi faoliyatlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi” [2]. Demak, pedagogik innovatsiya ta’im va tarbiyaning natijadorligini ta’minlash, sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. Xalq dostonlari orqali o’quvchilarda qanday ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirish maqsad qilib qo’yilganini, avvalo, o’qituvchining o’zi yaxshi tushunib olishi va shunga asosan dars metodlarini to’g’ri tanlay bilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo’lur” degan edi buyuk jadidchi bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy [3]. Darhaqiqat, dunyoviy fan hisoblangan adabiyot fanini “zamona ilmi”ga moslab o’qitish lozimdir. Adabiyot darslarida o’rganiladigan asarlar janr va g’oyaviy jihatdan rang-barang va qiziqarli. Yaratilish davri nuqtayi nazaridan ham badiiy asarlar ayrim o’rinlarda o’ziga xos murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa o’quvchilar tomonidan mavzuning bir xil darajada o’zlashtirishga imkon bermaydi. Bu borada adabiy ta’lim samaradorligiga erishishning eng ma’qul usuli sifatida e’tirof etilayotgan zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar ijobiy samara beradi.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). O’quvchi uchun dostonning umumiy mazmunidan xabardor bo’lish, voqealar rivojini, ketma-ketligini bilishning o’zi yetarli emas. Ular matnni o’qib, o’zlashtirib, teran mustaqil mushohada qilishga harakat qilishlari lozim. Shunday nodir epik asarni darslikda berilgan savol va topshiriqlar asosida o’qitish mutlaqo talabga javob bermaydi.

Umumta’lim maktablarining 10-sinfida “Rustamxon” dostoni o’qitishga jami 5 soat ajratilgan. Ana shu belgilangan 5 soatda “Rustamxon” doston matnini to’liq o’zlashtirilishiga erishish lozim. Buning uchun o’qituvchi dostondagi muammo va yechimlarni mustaqil izlab topishi va tahlil qilishi uchun darsda qo’llaniladigan metod va texnologiyalarni to’g’ri tanlashi kerak. O’qituvchi

dostonning tuzilishi, badiiyati, dostonni yozib olgan va o’rgangan olimlar hamda uni kuylagan baxshilar haqida qisqa, ammo darslikda berilmagan eng zarur ma’lumotlar bilan o’quvchini tanishtirishi lozim. Maktab o’quvchilarning qiziqishlarini oshirish, asar bilan yaqindan tanishishlari va tahlilga chuqur kirishishlari uchun xizmat qilishi kerak bo’lgan savollar juda oddiy va past saviya bilan tuzilgani tahlilning yuzaki bo’lishiga olib keladi. O’qituvchi, albatta, o’quvchilar bilan har bir holatga baho berishi, matnda qo’llangan har bir so’z va iborani, maqolni, hikmatlarni va ular bilan bog’liq hayotiy voqealar, badiiy asar yoxud kinofilmlarni yodga olishi, va eng asosiysi, aytilgan fikr va mulohazalar xulosalanishi lozim. Zero, “bunday yakun o’quvchini mazmun ustida o’ylash, uni idrok etish va hayotiy umumlashmalar qilishga undaydi” [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ /

RESULTS). Bugungi kunda, umumiy o’rta ta’lim maktablarining o’quvchi-yoshlariga xalq dostonlarini o’rganishda, matnni tahlil qilishda innovatsion texnologiyalarni qo’llash maqsadga muvofiq, albatta. Masalan, “Bumerang” texnologiyasini qo’llaganda o’quvchilarning badiiy asar matni bilan tanishishi, eng asosiy epizodlarini esda saqlab qolishi, gapirib berishi, o’z fikrini erkin, tortinmasdan bildira olishi, chegaralangan soatda (ya’ni, dars mobaynida) anchagina ma’lumotlarga ega bo’lishiga erishiladi. Badiiy asar matni ustida ishlash uchun eng samarali bo’lgan “Bumerang” texnologiyasini qo’llash kutilgan natijaga olib boradi. Ushbu metodni qo’llaganda o’quvchilar matn bilan yanada yaqindan tanishadilar, bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, fikr almashadilar. Shu usulda doston matni yaxshiroq idrok etiladi. Ma’lumki, matnni o’qituvchi to’liq o’qib, mazmunini qayta hikoyalab berishi metodik jihatdan mumkin emas va bu biz ko’zlagan samarani bermaydi, ham. “Qayta hikoyalash mumkin bo’lgan joyda esa san’at bo’lmaydi. San’atning san’atligi, ilohiyligi, ijodiyligi, takrorlanmasligi ham aynan, uni aytib berishga urinish badiiy asarni yo’qqa chiqarishdir” [4]. Tayyor berilgan bilim esa tezda unutiladi. Chunki, ichiga kirilmagan, mag’zi ochilmagan har qanday badiiy asar qiziqish uyg’otmaydi, o’quvchining ko’ngil mulkiga aylanmaydi. Mustaqil fikrlab, mulohaza yuritib, izlab, mehnat qilib o’zlashtirilgan bilim esa o’quvchi qalbidan, xotirasidan chiqmaydi. Shu bois

darsliklarda o'rganilayotgan xalq eposining original matnidan parcha berilishi, asar mazmunidagi ma'noni o'quvchilar o'zlari izlab topishlari uchun imkon berishi lozim. Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida (10-sinf) "Rustamxon" dostonini o'tishda quydagicha bir nechta bosqichlarni hisobga olish lozim bo'ladi:

1-bosqich. O'qituvchi o'quvchilarga murojaat qilib, ularning kichik guruhlariga bo'linishlarini so'raydi. Sinf o'quvchilari ixtiyoriy ravishda kamida

1-guruh	"Epos" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
2-guruh	"Millat" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
3-guruh	"Qadriyat" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
4-guruh	"Intellekt" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
5-guruh	"Innovatsiya" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi

2-bosqich. O'qituvchi tayyorlab kelgan matn yozilgan qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilar berilgan matnni ichlarida o'qib, berilgan parcha voqeayligi asarning qaysi qismidan berilganligi, topshishlari kerak bo'ladi.

1-guruh	Aralash guruh	"Intellekt" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
2-guruh	Aralash guruh	"Qadriyat" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
3-guruh	Aralash guruh	"Innovatsiya" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
4-guruh	Aralash guruh	"Epos" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi
5-guruh	Aralash guruh	"Millat" jamoasi	5 yoki 6 nafar o'quvchi

Shundan keyin, yangidan tashkil qilingan guruhlarda qizg'in bahs-munozara jarayoni boshlanadi. Yangi guruh a'zolari bir-birlari bilan o'qigan matnlari yuzasidan o'zaro fikr almashadilar va shu tariqa asar matnni to'la o'zlashtirishga erishib boriladi. Bunda ham vaqtdan yutiladi, ham o'quvchilar qisqa vaqt ichida doston matni bilan to'liq tanishadilar, o'zgalar fikrini tinglashga, hurmat qilishga o'rganadilar, darsda faol bo'ladilar, og'zaki nutqi rivojlanadi, tartib-qoidaga, intizomga amal qilishga o'rganadilar. Shundan so'ng o'quvchilar, yana avvalgi guruhlariga qaytadilar.

4-bosqich. O'qituvchi har bir guruh a'zolariga 2-3 tadan savol beradi. Savollar ularning o'zlari o'qigan matn asosida bo'lishi kerak, albatta.

5 nafardan tashkil topgan kichik guruhlariga bo'linib oladilar. Guruhlar shartli ravishda o'z guruhlariga nom tanlaydilar. O'qituvchi darslikda berilgan doston matnini mantiqiy qismlarga bo'lib chiqadi va darsda foydalanish uchun A-4 formatli qog'ozga chiqarib keladi. Maqsad, doston matnini qisqa vaqt ichida (dars mobaynida) chuqur va sinchiklab o'qish, o'quvchilarda erkin va ijodiy fikrlash, matn mazmunini anglash, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.

3-bosqich. O'quvchilar belgilangan vaqt davomida matnni o'qib bo'lgach, dostonidagi matn ketma-ketligi bo'yicha, yana har bir yangi "Aralash" guruh shakllanadi va ularni nomlash mumkin.

5-bosqich. Oxirgi bosqichda, guruh a'zolari raqib guruhlar uchun bittadan savol tuzish topshirig'i beriladi. Bu jarayon ham qizg'in bahs va munozaralar asnosida amalga oshiriladi.

Dars oxirida guruhlarning olgan ballari hisoblanib, e'lon qilinadi. To'plangan ballar guruh a'zolariga teng taqsimlanadi. Umuman, "Bumerang" metodi asosida badiiy asar matnini tahlil qilish o'quvchilarda mehr-oqibat, o'zgalar fikrini hurmat qilish, o'zgani tinglay olish kabi fazilatlar shakllantiriladi. Shuningdek, doston matnida xalq tafakkurining namoyon bo'lganligi, olamni anglash darajasi, odam va olam munosabatlarining talqini kabi muammolar matn zaminidagi mohiyatni anglatish orqali o'quvchi qalbiga singdiriladi.

Adabiy tahlil esa, matn asosida bo'lishiga diqqat qaratish lozim.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Xulosa qilib aytganda, dostonlarni innovatsion yondashuvlar asosida o'rganish o'quvchilarning aqliy va fikrlash faolligini o'stirib, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, keng ko'lamli xalq dostonlari matnini, ulardagi mohiyatni chuqur o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – B. 89.
2. Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1967. – 301 b.
3. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Description of the tragic fate of the Timurid princesses. Journal of Universal Science Research, 1(5), 1291–1298.
4. Quronov D. Adabiy asar talqini estetik tamoyil sifatida. “O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzusidagi konferensiya materiallari. – T.: Mumtoz so'z, 2014. – 65-72 b.
5. Rajabova I. Kasb-hunar kollejlari adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo'llari. Ped.fan.nomz.diss. – T.: 2011.
6. To'xliyev B. Badiiy asar tahlili // Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: TDPU, 2006. – 3-6 b.

